https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Xolmatova Gavharshodbegim Muhammadi qizi
Toshkent gumanitar fanlar universiteti
Aniq va gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
kholmatova1g@gmail.com

Qodiraliyeva Shahzoda Sherzod qizi Toshkent gumanitar fanlar universiteti
Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi talabasi
qodiraliyevashahzoda601@gmail.com

GEOSIYOSIY RAQOBATNING O‘ZBEKISTON IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA’SIRI

Annontatsiya. Ushbu maqolada globallashuv sharoitida kuchayib borayotgan geosiyosiy raqobatning O‘zbekiston iqtisodiy xavfsizligiga ko‘rsatadigan ta’siri har tomonlama tahlil qilinadi. Dunyoning yetakchi kuch markazlari hisoblangan - AQSH, Xitoy, Rossiya, Yevropa Ittifoqi va boshqa mintaqaviy kuchlarning Markaziy Osiyo bo‘yicha strategiyalari O‘zbekistonning milliy manfaatlari nuqtai nazaridan baholanadi. Shuningdek, maqolada O‘zbekistonning energetika mustaqilligi, transport-tranzit koridorlari, savdo hamkorligi, investitsion muhit va raqamli iqtisodiyotga oid xavflar hamda imkoniyatlar tahlil etilgan. Bundan tashqari, geosiyosiy raqobatning kuchayishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy tahdidlar, jumladan, tashqi bosimlar, sanksiyalar xavfi, ta’minot zanjirlari uzilishi va texnologik asoratlanish kabi jarayonlar ilmiy asosda yoritiladi. Maqolada O‘zbekistonning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan strategik yo‘nalishlar, xususan, diversifikatsiya, mintaqaviy integratsiya, “yashil energetika”, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va tashqi siyosatda muvozanatni saqlash bo‘yicha takliflar beriladi. Ushbu maqolada O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishida geosiyosiy omillarining ahamiyati ochib beriladi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Kalit so‘zlar. AQSH, Xitoy, Rossiya, Yevropa Ittifoqi, Markaziy Osiyo, O‘zbekiston, geosiyosiy raqobat, iqtisodiy xavfsizlik, milliy manfaatlar, savdo hamkorligi.

Kirish.

Hozirgi global tizimda geosiyosiy raqobatning kuchayishi davlatlarnining iqtisodiy barqarorligi va milliy xavfsizlik strategiyalariga bevosita ta’sir ko‘rsatayotgan asosiy omillardan biridir. Yirik geoiqtisodiy markazlar hisoblangan AQSH, Xitoy, Rossiya, Yevropa Ittifoqi va mintaqaviy kuchlarning manfaatlar to‘qnashuvi Markaziy Osiyoda murakkab startegik muhitni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, tabiiy resurslarga boy hamda transport-kommunikatsiya yo‘laklarining kesishgan hududi bo‘lgan O‘zbekiston uchun ushbu jarayonlar nafaqat tashqi siyosat, balki iqtisodiy xavfsizlikning asosiy ko‘rsatkichlarini belgilab bermoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiy islohatlarni jadallashtirib, xalqaro iqtisodiy integratsiyani kengaytirayotgan bir paytda geosiyosiy raqobatning global va mintaqaviy darajadagi o‘zgarishlari mamlakatning iqtisodiy manfaatlariga yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda ma’lum xavf va cheklovlarni ham yuzaga keltirmoqda. Energetika bozorlari, transport-tranzit yo‘laklari, investitsiya manbalari, eksport bozorlariga kirish, texnologik ta’minot zanjirlaridagi o‘zgarishlar iqtisodiy xavfsizlik stratergiyasining dolzarb yo‘nalishiga aylangan.

Asosiy qism.

Markaziy Osiyo mintaqasi bugungi global siyosatning strategik hududlaridan biri bo‘lib, unda yirik davlatlarning manfaatlari to‘qnash kelmoqda. Xususan:

- AQSH - energetik xavfsizlik, Afg‘onistondagi barqarorlik, Xitoyning mintaqada ta’sir doirasining kengayishini oldini olish;
- Xitoy - “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi orqali iqtisodiy va infratuzilma ustunligini kuchaytirish;

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

- Rossiya - kollektiv xavfsizlik tashkilotlari va energetik ta’minot orqali ta’sirini saqlash;
- Yevropa Ittifoqi - yashil energetika, neft-gaz bozorini diversifikatsiya qilish.[1]

Bu raqobat O‘zbekiston uchun bir vaqtning o‘zida imkoniyatlar va xavf-xatarlarni yuzaga keltiradi. O‘zbekistonning ushbu raqobatdagi imkoniyatlaridan biri sifatida Xitoy bilan keng ko‘lamli strategik hamkorligini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bugungi kunda Xitoy O‘zbekistonning eng yirik savdo hamkorlaridan biri bo‘lib, ikki tomonlama savdo hajmi 2023-yilda 12 mlrd dollardan oshgan.[2] Xitoy bilan hamkorlikning O‘zbekiston uchun ustuvor jihatlari yo‘l, transport, energetikaga sarmoya kiritish kabi infratuzilma loyihalari, shuningdek, sanoat korxonalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jalb qilinishi hamda eksport bozorlarining kengaytirilishidan iborat.

Ushbu jarayonlarda O‘zbekistonning Xitoy bilan o‘zaro hamkorligining e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan ayrim jihatlari mavjud. Jumladan, Xitoy kreditlari hisobidan qarzdorlik xavfi, mahalliy bozorning arzon Xitoy mahsulotlariga bog‘lanishi, energetika va transport kabi strategik sohalarda qaramlikning kuchayishi ehtimoli yuqori. Shu bois o‘zaro munosabatlarda ehtiyotkorona siyosat olib borish tavsiya etiladi.

T'kidlash joizki, Rossiya ham O‘zbekiston uchun muhim iqtisodiy hamkor bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston aholisining sezilarli qismi Rossiyada faoliyat olib bormoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda Rossiyadan O‘zbekistonga pul o‘tkazmalari 14 mlrd dollarni tashkil qilgan. Bu mamlakat YaIMning 20%ga yaqinini tashkil etadi.[3] Bu albatta O‘zbekiston iqtisodiyotiga sezilarli ta’sir

[1] International Energy Agency (IEA) — “Central Asia Energy Outlook” (2023)
[2] World Bank — “Uzbekistan Economic Update” (2023–2024)

[3] MF — “Remittances and Economic Stability in Central Asia” (IMF Working Paper, 2023)

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

o‘tkazmasdan qolmaydi. Rossiya bilan iqtisodiy hamkorlikning ijobiy taraflari bilan bir qatorda xavf soluvchi omillari ham mavjud:

Birinchidan, Rossiyaga nisbatan sanksiyalar kuchaysa, migrantlar oqimi va pul o‘tkazmalari keskin kamayishi mumkin. Bu esa O‘zbekistonning iqtisodiyotiga va fuqorolariga jiddiy ta’sir etishi mumkin.

Ikkinchidan, O‘zbekistonning gaz va neft bo‘yicha importga qaramligi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita xavf solishi mumkin. Ayniqsa, import hajmi oshishi narxlarning tashqi bozorlarda o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lib, bu ichki bozor barqarorligiga ta’sir qiladi.

Uchinchidan, Rossiya bozoridagi beqarorlik eksport narxlarining tushib ketishiga olib keladi va bu O‘zbekistonning valyuta tushumlarini qisqartiradi.[4]

Mintaqaga bevosita ta’siri o‘tkazuvchi hamda geosiyosiy raqobatda yetakchi kuch markazi hisoblangan AQShni ham ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiqdir. 1991-yilda AQSh O‘zbekiston mustaqilligini birinchiladan bo‘lib tan oldi. 1992-yilda esa ikki davlat o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatilib, Toshkentda AQSH elchixonasi ochildi. Ikki davlat hamkorligining asosiy yo‘nalishlari iqtisodiy islohatlarni qo‘llab-quvvatlash, bozor iqtisodiyotiga o‘tish, demokratik institutlar rivojiga hissa qo‘shishdir. Shu bilan bir qatorda bugungi kunda ham AQSH va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlari davom etmoqda. Jumladan, 2025-yil 5-sentabrda Donald Tramp va prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘rtasida telefon muloqoti bo‘lib o‘tdi. Ushbu muloqotda Donald Tramp O‘zbekistonda olib borilayotgan islohatlarni yuqori baholagan. O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham Donald Trampning tinchlik yo‘lidagi sa’y-harakatlarini e’tirof etgan. Ta’kidlash joizki, Amerika Qo‘shma Shtatlarining Markaziy Osiyoga qarashi doimo geosiyosiy raqobat prizmasi orqali shakllanib kelgan. Zbignev Bjyezinskiyning “Buyuk shaxmat taxtasi” asarida ham asosiy

[4] Paul Kennedy — “The Rise and Fall of Great Powers” (1987)

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

e'tibor Markaziy Osiyodagi ikki muhim davlat – Qozog'iston va O'zbekistonga qaratilishi kerakligini ta'kidlab, bunga asos bo'luvchi qator omillarni sanab o'tgan.[5] Ushbu omillar geostrategik joylashuv, aholi soni va resurslari, tarixiy-svilizatsion markaz sifatidagi mavqei, harbiy-siyosiy salohiyati, iqtisodiy imkoniyatlari hamda mintaqaviy yetakchilikka intilish bilan izohlanadi. Ikki davlat rahbarlarining mazkur muloqoti AQSH va O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va diplomatik aloqalarning yanada rivojlanishiga sabab bo'ldi.[6] Shu jumladan, O'zbekiston va AQSH munosabatlarining O'zbeksiton uchun ijobiy tomonlari sanab o'tadigan bo'lsak, ular quyidagicha:

1. Investitsiyalar va General Electric, Boeing, Coca-cola kabi yirik kompaniyalar uchun ochiqlik O'zbekistonga investitsiya, ish o'rni va eksport imkoniyatini yanada kengaytiradi;
2. Xavfsizlik va ta'lim sohasidagi hamkorlik – AQSH grantlari, stipendiyalari, ingliz tili dasturlari va xavfsizlik bo'yicha yordam iqtisodiy va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi.[7]

Shu o'rinda qayd etish kerakki, AQSH bilan hamkorlik doirasida O'zbekiston uchun ehtimoliy xavflar ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, AQSH ko'pincha hamkorlikni demokratiya, inson huquqlari va tashqi siyosat bo'yicha talablar bilan bog'laydi, bu esa davlat siyosiy mustaqilligiga bosim bo'lishi mumkin. Natijada, siyosiy bosim va shartlarga bog'liqlik xavfi yuzaga kelishi mumkin.

[5] Zbigniew Brzezinski — "The Grand Chessboard: American Primacy and Its Geostrategic Imperatives" (1997)

[6] https://kun.uz/74270439

[7] Paul Stronski — "Turbulence in Central Asia" (Carnegie Endowment, 2020)

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Ikkinchidan, geosiyosiy ziddiyatlarga tortilish xavfi AQSH-Xitoy yoki AQSH-Rossiya raqobatida O‘zbekiston manfaatlari murakkablashishi va tashqi iqtisodiy bosimlar yuzaga kelishi mumkin.

Uchinchidan, AQSH kreditlari yoki investitsiyalari ko‘pincha qat’iy shartlar va yuqori talablar bilan beriladi, bu iqtisodiy xavfni oshirishi mumkin.[8]

Shu bois, O‘zbekiston geosiyosiy raqobat sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarini muvozanatli va ehtiyotkorlik bilan olib borish zarur.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, geosiyosiy raqobat O‘zbekiston iqtisodiy xavfsizligiga bir vaqtning o‘zida imkoniyatlar va xavf-xatarlarni olib keladi. Bunday holatlar uchun quyidagi takliflarni kiritish mumkin:

Birinchidan, energetik mustaqillikni kuchaytirish ya’ni, qayta tiklanuvchi energiya (quyosh, shamol) loyihalarani kengaytirish, gaz va neft importiga bog ‘liqlikni kamaytirish uchun zaxiralarni modernizatsiya qilish hamda energiya tejovchi texnologiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, savdo bozorlarini diversifikatsiya qilish orqali Rossiya, Xitoydan tashqari Turkiya, Yevropa, Janubiy Koreya va Yaponiyaga eksportni kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, “muvozanatli tashqi siyosat” tamoyilini davom ettirish, geosiyosiy bloklarga qo‘shilmaslik, barcha davlatlar bilan manfaatli va tenglikka asoslangan hamkorlikni rivojlantirish O‘zbekistonning mintaqadagi geosiyosiy o‘rnini mustahkamlashga va yetakchi kuch markazlarining ta’sir doirasiga tushib qolmaslikka yordam beradi.

[8] Samuel P. Huntington — “The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order” (1996)

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

So‘nggi so‘z o‘rnida, O‘zbekistonning tashqi maydondagi asosiy vazifasi bu geosiyosiy bosimlardan holi, diversifikatsiyalangan va barqaror iqtisodiy modelni shakllashtirish hamda barcha davlatlar bilan neytral tashqi siyosat olib borish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Zbigniew Brzezinski — “The Grand Chessboard: American Primacy and Its Geostrategic Imperatives” (1997)
2. Samuel P. Huntington — “The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order” (1996)
3. Paul Kennedy — “The Rise and Fall of Great Powers” (1987)
4. Paul Stronski — “Turbulence in Central Asia” (Carnegie Endowment, 2020)
5. IMF — “Remittances and Economic Stability in Central Asia” (IMF Working Paper, 2023)
6. World Bank — “Uzbekistan Economic Update” (2023–2024)
7. International Energy Agency (IEA) — “Central Asia Energy Outlook” (2023)
8. https://kun.uz/74270439